




СБОРНИК ТЕЗИСОВ

**МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ:
«СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ
РАЗВИТИЯ ИНФЕКТОЛОГИИ,
МЕДИЦИНСКОЙ ПАРАЗИТОЛОГИИ,
ЭПИДЕМИОЛОГИИ И
МИКРОБИОЛОГИИ»**

4-5 апреля
2023 года
Ургенч



Министерство здравоохранения
Республики Узбекистан

Ташкентская медицинская академия

Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии

Международная общественная организация
«Евро-Азиатское общество по инфекционным болезням»

Министерство здравоохранения
Республики Каракалпакстан

Федеральное бюджетное учреждение науки
Московский научно-исследовательский институт
эпидемиологии и микробиологии имени Г.Н. Габричевского

**Сборник тезисов международной
научно-практической конференции
«Современные тенденции развития
инфектологии, медицинской паразитологии,
эпидемиологии и микробиологии»**

4-5 апреля 2023 г.

Город Ургенч



SHIGELLOZ INFEKSIYASI BILAN KASALLANISH KO'RSATKICHLARINI EPIDEMIOLOGIK TAHLILLARI

Ahmedova M.D.¹, Mirzajonova D.B.², Ro'ziyev A.M.²

¹Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston

²Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Toshkent, O'zbekiston

Ishning maqsadi: 2022-yil davomida Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi klinik bo'limlarida "O'tkir diareya - Shigellyoz" tashxisi bilan yotib davolangan bemorlarning retrospektiv kasallik tarixlaridan olingan ma'lumotlarning epidemiologik hamda statistik tahlili.

Tekshirish materiallari va usullari: 2022-yil RIEMYuPKIATM ning Reanimatsiya hamda kattalar va bolalar O'tkir ichak infeksiyalari bo'limlarida Rotor Gene Q PZR-apparatida - PZR sifatli usulida tekshirilgan va tasdiqlangan O'tkir shigellyoz infeksiyasi bilan kasallangan jami 35 nafar bemorlarning kasallik tarixlari o'rganildi. Bunda 102 nafar bemorlar "O'tkir ichak infeksiyalari PZR-Skrining" usulida 9 xil ichak infeksiyalariga tekshirilgan, ya'ni Shigellyoz, salmonellyoz, komplibakterioz, esherixioz, yersinioz, adenovirus, rotavirus, astrovirus, norovirus infeksiyalariga.

Natijalar: Tahlil qilingan ma'lumotlarga ko'ra - 2022-yil 102 nafar bemorlar "O'tkir ichak infeksiyalari PZR-Skrining" usulida 9 xil ichak infeksiyalariga tekshirilganda ularning 35 nafarida shigellyoz qo'zg'atuvchilari topilgan. Bunda ularning yosh guruhlari shartli ravishda uch guruhga bo'lindi: 0-1 yoshgacha, 1-3 yoshgacha hamda 3 yoshdan katta guruhlarga. Hamda bu yosh guruhlari kasallikning uchrash foizi 45.7%, 34.3%, 20% ga teng bo'ldi. 2022-yilda qayd etilgan kasallikning mavsum bo'yicha uchrash foizlari - bahor oylarida 14.3%, yoz oylarida 28.6%, kuz oylarida 57.15%, qish oylarida esa keskin pasayib 5.7% ga teng bo'ldi. Tekshirilgan tahlillarga ko'ra jami bemorlarning 60% i erkak va 40% i ayol jinsiga mansub bo'lgan. Bemorlarning 15 nafarida nafaqat shigellyoz balki boshqa infeksiyalar - salmonella spp, complibacteria, rotavirus, norovirus hamda astroviruslar ham topilgan.

Xulosa: Yuqorida olingan natijalarga ko'ra shuni aytish mumkinki, kasallanish mavsumiy xarakterga ega, 57% dan oshiq kasallanish kuz oylariga to'g'ri kelib, qish oylarida kasallanish keskin pasaymoqda. Kasallanishning yosh guruhlari ko'radigan bo'lsak, bemorlarning jami 80% dan oshig'i go'daklar yoshiga to'g'ri kelmoqda (0-3 yosh). Jins bo'yicha olingan nisbatda esa o'g'il bolalar sezilarli ravishda ustun bo'lgan. Kasallikning og'ir kechishida nafaqat shigella qo'zg'atuvchisining o'zi, balki qo'shimcha infeksiyalarning birga kelishi ham ahamiyatli ekanini olingan natijalarga ko'ra aytish mumkin bo'ladi.